

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY TARBIYANING
SHAKLLANISHI**

Jamshidova Sevinch Jamshid qizi -

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi
yo'nalishi 2- kurs talabasi
email: jamshidovasevinch762@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy tarbiyaning shakllanib borishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, malaka, bola, ko'nikma, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oilaviy hamkorlik, psixolog, pedagog, muloqot madaniyati.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy tarbiyaning shakllanishi bolalarning jamiyatga moslashishi, muloqot madaniyati va insoniy fazilatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ijtimoiy tarbiya berish jarayonida avvalo oila va jamiyat bilan ham hamkorlikda bo'lislari lozim. Masalan: ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatish, mahalla va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni bolalarga singdirish.

Bolalarga ijtimoiy tarbiya berish jarayonida hurmat, do'stlik,adolat kabi fazilatlarni o'rgatish, qoidalarga riosa qilish va intizomni shakllantirish, yaxshi va yomon xatti- harakatlarni farqlashni o'rgatib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va tafakkur faol rivojlanadi. Bu jarayonda bolalarni bir- birlari bilan turi muloqot qilishga o'rgatish, qonun- qoidalarga riosa qilishni tushuntirish, jamoada ishslash ko'nikmalar rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga kamtarlik o'rgatiladi, chunki bolalar ko'pincha o'zlari va ota-onalari haqida maqtanish, xayol qilishni yaxshi ko'radilar. O'qituvchi esa bolaga uning imkoniyatlarini, faoliyati natijalarini tanqidiy baholashga yordam beradi, bolalarni kuchli va kuchsiz tomonlarini to'g'ri baholashga o'rgatadi. Maktabgacha

yoshdagi bolalarda ijtimoiy tarbiyaning shakllanishi masalasi ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Mashhur sotsial- madaniy rivojlanish nazariyasi asoschisi L.S.Vygotskiy bolalarning rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bolaning shaxsiyati, nutqi va tafakkuri jamiyatdagi o'zaro munosabatlar orqali shakllanadi. L.S.Vygotskiy "Yaqin rivojlantirish zonasi" tushunchasini ilgari surib, bola kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro ta'sir orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

J.Piaget esa bolalarning ijtimoiy tarbiyasi ularning aqliy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq deya ta'kidlaydi. Bola atrof- muhit bilan o'zaro a'sir orqali yangi bilim, tushuncha va ko'nikmalarni egallaydi. J.Piagetsning fikriga ko'ra ijtimoiy tarbiya bolada axloqiy tarbiyaning shakllanishiga zamin yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy tarbiyasi atrof-muhit, muloqot, o'yin va faoliyat orqali shakllanadi. Bolaning jamiyatga moslashuvi uchun unga qulay psixologik va ijtimoiy muhit yaratish muhimdir. Ijtimoiy tarbiya bolaning hayotga tayyorlanishida muhim o'rin tutadi va uni kelajakda jamiyatda faol shaxs bo'lishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy tarbiyaning shakllanishi ularning kelajakdagi hayotiga asos bo'lib, jamiyat bilan uyg'un munosabatda bo'lishiga, axloqiy qadriyatlarni anglashiga va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishiga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali bola nafaqat atrofdagilar bilan muloqot qilishni o'rganadi, balki hurmat, mehr-oqibat,adolat, mas'uliyat kabi insoniy fazilatlarni ham egallaydi.

Bolalik – inson hayotidagi eng muhim davrlardan biri bo'lib, aynan shu bosqichda qo'yilgan ijtimoiy tarbiya poydevori uning kelajakdagi shaxsiyati va jamiyatdagi o'rmini belgilaydi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy tarbiyaning to'g'ri shakllanishi nafaqat bolaning shaxsiy muvaffaqiyati, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1."Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rivojlanish" – Jumayeva Malika Aliyevna, 2023 yil.

2. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
3. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
4. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.
5. Akramova, D. E. qizi Suvonqulova, MD (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).
6. Akramova, D. E. qizi Azimova, XD (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).
7. Ergashevna, A. D. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIALIZATION IN SCHOOLCHILDREN OF THE PREPARATORY GROUP. *SHOKH LIBRARY*.
8. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
9. Ibraimov, X., & Akramova, D. (2023). DIDACTIC CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE TRAINING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *Science and innovation*, 2(B11), 357-361.
10. "Umumiy pedagogika" – N.M. O'rnova, I.I. Tuychiyeva, B.X. Baydjanov, 2024 yil.